



Problems of achieving equivalence in the translation of official texts

Shakhzod ABDULLAEV¹

Uzbek State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

equivalence,
formal style,
translation,
Amir Temur's Codes,
terminology,
structural adaptation,
cultural differences.

ABSTRACT

This article examines the challenges of achieving equivalence in formal style translation, with a focus on the Codes of Amir Timur. Drawing on the works of E. Nida, P. Newmark, and L. Koller, the study explores key issues such as terminological precision, structural differences, and cultural nuances. It highlights strategies like structural adaptation and terminological consistency as essential for enhancing translation accuracy and functionality in formal texts.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp225-233>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Rasmiy matnlar tarjimasida ekvivalentlikka erishish muammolari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ekvivalentlik,
rasmiy uslub,
tarjima,
"Amir Temur Tuzuklari",
terminologiya,
tarkibiy moslashuv,
madaniy farqlar.

Ushbu maqolada Amir Temur "Tuzuklar"iga asoslanib, rasmiy uslubdagi matnlarning tarjimasida ekvivalentlikka erishish muammolari tahlil qilinadi. Yujin Nida, Piter Nyumark va Verner Koller tadqiqotlariga tayangan holda, terminologik aniqlik, tuzilma farqlari va madaniy xususiyatlar kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Aniqlik va funktsionallikni ta'minlash uchun tuzilmaviy moslashuv va terminologik izchillik strategiyalariga e'tibor qaratiladi.

¹ PhD-researcher, Uzbek State World Languages University. E-mail: abdullaev.sh.f@gmail.com

Проблемы достижения эквивалентности при переводе официальных текстов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

эквивалентность,
формальный стиль,
перевод,
«Уложение Амира
Темура», терминология,
структурная адаптация,
культурные различия.

В статье, основанной на «Уложении Амира Темура», рассматриваются проблемы достижения эквивалентности при переводе текстов формального стиля. Опираясь на работы Юджина Найды, Питера Ньюмарка и Вернера Коллера, автор анализирует вопросы терминологической точности, структурных различий и культурных особенностей. Особое внимание уделяется стратегиям структурной адаптации и терминологической последовательности, способствующим обеспечению точности и функциональности перевода.

KIRISH

Bugungi kunda globallashuv jarayoni xalqaro muloqotning barcha sohalarida, jumladan, ilm-fan, huquq va diplomatiya kabi rasmiy yo'nalishlarda faol rivojlanmoqda. Bunday jarayonda rasmiy uslubdagi matnlarning to'g'ri va aniq tarjima qilinishi global hamkorlik va huquqiy normalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Rasmiy uslubdagi matnlar, jumladan, huquqiy, ilmiy va akademik matnlar qat'iy tuzilma va standartlarga ega bo'lib, terminologiyaning aniqligini, mazmunning bir ma'noliligini va uslubiy izchillikni talab qiladi. Bunday matnlarning tarjimasida mazmun va shakl uyg'unligini ta'minlash alohida ilmiy va amaliy e'tiborni talab etadi. Piter Nyumark o'zining "A Textbook of Translation" asarida ta'kidlaganidek, "...rasmiy matnlar tarjimasida aniqlik va izchillik birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon ko'pincha til va uslub chegaralarini buzmaslikni talab qiladi". Shu sababli, rasmiy uslubdagi matnlarni tarjima qilishda qat'iy struktura izchillik zarur bo'ladi. Rasmiy uslubdagi matnlar xalqaro hamkorlikning asosini tashkil etadi. Masalan, xalqaro huquqiy shartnomalar va ilmiy maqolalar kabi matnlar global jarayonlar uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday matnlarda terminologik va sintaktik aniqlik juda muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda Kollerning "Ekvivalentlikning asosiy mezonlari matn turiga va funksiyasiga mos kelishi lozim" degan fikrlarini eslash joizdir. Shu boisdan, bunday matnlarning tarjimasida terminologik sadoqat va uslubiy uyg'unlikni ta'minlash muhim hisoblanadi.

Tillarning grammatik, leksik va uslubiy tizimlari o'rtasidagi farqlar sababli rasmiy uslubdagi matnlarni tarjima qilishda ekvivalentlikka erishish murakkab jarayondir. Masalan, bir til uchun odatiy bo'lgan huquqiy yoki ilmiy termin boshqa til tizimida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmasligi mumkin. Bundan tashqari, har bir til va madaniyat o'ziga xos sintaktik va uslubiy me'yorlarga ega bo'lib, bu me'yorlar boshqa tilga tarjima qilinganida ma'no yoki ta'sirning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Roman Yakobsin bu haqida o'zining "On Linguistic Aspects of Translation" asarida shunday deydi: "Hech qanday to'liq ekvivalentlik mavjud emas, chunki tillar o'rtasida semantik va sintaktik tizimlar farqlidir". Shu sababli, tarjima jarayonida madaniy tafovutlar ham inobatga olinishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur maqola rasmiy uslubdagi matnlarning tarjimasida ekvivalentlikka erishishning nazariy va amaliy muammolarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida terminologik aniqlikni saqlash, tillarning tuzilma farqlarini moslashtirish va madaniy omillarni hisobga olish strategiyalari tahlil qilinadi. Amir Temur tuzuklari misolida bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar ko'rib chiqiladi. Yujin Nida, Piter Nyumark va Verner Koller kabi tarjima nazariyotchilarining asarlari tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Maqola rasmiy matnlar tarjimasida terminologik ekvivalentlik, sintaktik va tuzilma farqlarining ta'siri hamda madaniy xususiyatlarning inobatga olinishi bilan bog'liq masalalarni tahlil qiladi. Tarjima sifatini oshirish uchun tavsiya etilgan strategiyalar va natijalar tarjimonlar hamda mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kutilmoqda.

Nida, pioner tarjimon va tarjima nazariyotchisi sifatida, tarjima jarayonida formal va dinamik ekvivalentlik konsepsiyalarini ilgari surdi. Uning fikricha, formal ekvivalentlik matnning grammatik va leksik jihatdan asliyatga maksimal darajada yaqin bo'lishini talab qiladi. Bunday yondashuv, ayniqsa, huquqiy, ilmiy va texnik matnlarda muhim, chunki bunday matnlar huquqiy va texnik aniqlikni saqlashi kerak. Nida bu haqida shunday yozgan: "Formal ekvivalentlik orqali asl matnning struktura va mazmunini imkon qadar o'z holicha saqlashga harakat qilinadi, ammo bu ko'pincha ma'no va muloqotga ta'sir qilishi mumkin. Dinamik ekvivalentlik, aksincha, matnning asosiy kommunikativ maqsadini saqlashga intiladi, bunda maqsadli tilning madaniy va muloqot sharoitlari inobatga olinadi." Rasmiy matnlar tarjimasida, Nidaning ta'kidlashicha, formal ekvivalentlik ustuvorlik qilishi kerak, chunki huquqiy va texnik matnlarning aniqligi muloqotning to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Boshqa bir tarafdin esa, Piter Nyumark ekvivalentlikni semantik va kommunikativ tarjima tushunchalari orqali tushuntiradi. Semantik tarjima asliyatdagi leksik va grammatik tuzilmani maksimal darajada saqlashni talab qiladi. Bu yondashuv asosan ilmiy va rasmiy matnlar uchun qo'llaniladi. Kommunikativ tarjima esa o'quvchiga mos tushunarli shaklda taqdim etiladigan tarjima usulidir. Piter Nyumarkning rasmiy matnlar tarjimasida semantik tarjima ustuvor bo'lib, har qanday o'zgarish terminologik yoki grammatik nuqtai nazardan zarurat bilan asoslanishi lozim degan fikrlari rasmiy va texnik matnlar izchilligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Uning fikricha, rasmiy uslubdagi matnlarda tarjimon uslub va mazmunni imkon qadar bir xil saqlashi kerak. Ayniqsa, xalqaro huquqiy yoki diplomatik matnlarda kichik bir terminologik noaniqlik huquqiy tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Koller ekvivalentlikni beshta kategoriyaga ajratib o'rganadi. Uning nazariyasida rasmiy matnlarda ayniqsa denotativ va tekst-normativ ekvivalentlik muhim rol o'ynaydi. Denotativ ekvivalentlik matndagi faktlar va ma'lumotlarning to'g'ri ifodalanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, tekst-normativ ekvivalentlik matn turiga va janriga mos keluvchi lingvistik va uslubiy me'yorlarni saqlashni talab qiladi. Kollering fikricha, rasmiy matnlar tarjimasida ekvivalentlikni buzadigan har qanday o'zgarish hujjatning muloqotdagi qiymatini pasaytiradi. Kollerning nazariyasi bo'yicha huquqiy, ilmiy va texnik matnlar yuqori darajada standartlashtirilgan bo'lib, bunday matnlarda mazmun va forma o'rtasidagi bog'liqlikning buzilmasligi muhimdir.

Katford tarjimada "shifts-o'zgarishlar" tushunchasini kiritgan. Uning fikricha, tarjima jarayonida til tizimlarining leksik va sintaktik farqlari sababli matnning tuzilishi yoki mazmunida o'zgarishlar yuzaga keladi. Rasmiy matnlarni tarjima qilishda bunday

o'zgarishlarni minimal darajada saqlash kerak. Katford ta'kidlaganidek, "Tarjimaning muvaffaqiyati, ayniqsa, rasmiy matnlarda, sintaktik va leksik moslashuvni imkon qadar kamaytirishga bog'liq." Shu boisdan rasmiy matnlarni tarjima qilishda sintaktik o'zgarishlarni kam qilish matnning aniqligini saqlashga yordam beradi, ammo ba'zi tillararo farqlar tufayli bu har doim ham amalga oshirilmaydi.

Roman Yakobsin tarjimada to'liq ekvivalentlik tushunchasiga shubha bilan qaraydi va tarjimada hech qachon so'zma-so'z moslikka to'la erishib bo'lmashligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Tillarning semantik va sintaktik tizimlari bir-biridan farq qiladi, shuning uchun tarjimada ma'lum darajadagi yo'qotishlar yoki o'zgarishlar muqarrardir." Bu yondashuv, ayniqsa, madaniy jihatdan sezgir matnlarga nisbatan qo'llaniladi. Biroq, Jakobsin rasmiy matnlarda ekvivalentlikni maksimal darajada saqlash uchun strukturaviy va semantik tahlil zarur deb hisoblaydi.

Nord tarjima jarayonida matnning funksiyasi va maqsadini saqlashning muhimligini ta'kidlaydi. Uning Skopos nazariyasiga ko'ra, tarjima qilingan matnning kommunikativ funksiyasi asl matnga muvofiq bo'lishi kerak. Nordning fikricha, rasmiy matnlar tarjimasida terminologik aniqlik va madaniy uyg'unlik asosiy talablardan biri bo'lib, u shunday yozadi: "Rasmiy matnlarning tarjimasida nafaqat matn mazmuni, balki uning ijtimoiy va madaniy konteksti ham hisobga olinishi zarur." Bu nuqtai nazar tarjimonlardan nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini ham talab qiladi. Yuqorida keltirilgan olimlarning qarashlari rasmiy uslubdagi matnlarni tarjima qilishda ekvivalentlikka erishishning qanchalik murakkab jarayon ekanligini ko'rsatadi. Nida, Newmark, Koller va boshqa nazariyotchilar matn tuzilmasi, mazmuni va funksiyasini saqlab qolish uchun turli yondashuvlarni taklif qiladilar. Bunday tarjimalar yuqori darajadagi aniqlik, terminologik izchillik va kommunikativ sadoqatni talab qiladi. Tarjimonlar matn turiga mos keluvchi yondashuvlarni qo'llash orqali tillararo muloqotning samaradorligini oshirishi mumkin.

METODOLOGIYA

Tarjima nazariyasining metodologik asoslarini qayta ko'rib chiqish zarurati, shuningdek, amaliy ehtiyojlar bilan ham bog'liq. Xususan, tarjima o'rgatishda ekvivalentlik, matnlarning bir xillik yoki o'xshashlik kabi an'anaviy tushunchalar asosida ish olib borish ko'pincha noto'g'ri tasavvurlarni shakllantiradi va xatolarga olib keladi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, tarjima qilinayotgan matnning tabiiylikdan uzoqligi yoki sun'iyliigi ana shunday noto'g'ri tushunchalarning oqibatidir. Shunday qilib, nazariyaning zamonaviy yondashuvi tarjima faoliyatiga subyektiv tafakkur va kognitiv jarayonlarni jalb etib, unga ko'proq ijodiy va ilmiy ko'z bilan qarashni taklif qiladi. Tarjima jarayonida rasmiy uslubdagi matnlarning ekvivalentligini ta'minlash doimiy e'tiborni talab qiladigan dolzarb muammo hisoblanadi. Chunki bunday matnlar tarkibida qat'iy belgilangan terminologiya, standartlar va yuqori darajadagi aniqlik talab qilinadi. Shu sababli ushbu tadqiqotda ilmiy-nazariy qarashlar hamda amaliy tahlillar asosida ekvivalentlik muammolarini o'rganish va tahlil qilishga yo'naltirilgan kompleks metodologiya qo'llanildi. Yujin Nidaning dinamik va formal ekvivalentlik konsepsiyalari tarjimada asosiy yondashuvlar sifatida qabul qilingan. Nida formal ekvivalentlikni tarjima matnining asl nusxadagi grammatik va leksik jihatlariga sadoqatli bo'lishi sifatida izohlaydi. Bunday yondashuv rasmiy va texnik matnlar uchun muhim hisoblanadi, chunki mazmun va shaklning bir xil saqlanishi talab etiladi. Shu bilan birga, dinamik ekvivalentlik orqali o'quvchiga qulay va tushunarli bo'lgan, lekin asl matnning kommunikativ maqsadini to'liq aks ettiradigan tarjima amalga oshiriladi.

Mazkur nazariy qarashlar asosida tadqiqotning amaliy bosqichida “Amir Temur tuzuklari” matni asosiy obyekt sifatida tanlandi. Bu matnning lingvistik va madaniy jihatlari rasmiy uslubdagi tarjimada yuzaga keladigan asosiy muammolarni tahlil qilish uchun imkon yaratadi. Tanlangan parchalar terminologik, sintaktik va stilistik jihatdan oʻrganilib, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar aniqlandi. Jumladan, tarixiy va madaniy terminlar boshqa til tizimida toʻgʻridan-toʻgʻri ekvivalentga ega boʻlmagan holatlar kuzatildi. Bunday hollarda tarjimonlar koʻpincha terminlarni kontekstual moslashtirish strategiyalaridan foydalanishga majbur boʻladilar.

Tahlil natijalari qiyosiy yondashuv orqali ham mustahkamlandi. Turli tarjimonlarning rasmiy uslubdagi matnlarni tarjima qilishda qoʻllagan usullari solishtirildi. Ushbu qiyosiy tahlil orqali terminologik izchillik, gap tuzilmasi va stilistik xususiyatlarni saqlash darajasi baholandi. Ayrim tarjimalarda soʻzma-soʻz ekvivalentlikni saqlashga intilish natijasida matnning semantik ravonligi buzilgani kuzatildi, boshqa hollarda esa oʻquvchi uchun tushunarli boʻlish maqsadida sintaktik moslashuvlar qoʻllangan.

Rasmiy uslubning subjanrlari. Rasmiy uslub koʻpincha ilmiy, kasbiy va rasmiy kontekstlarda qoʻllaniladi. U aniq tuzilgan, obyektiv va shaxsiylikdan xoli boʻlgan tilda ifoda qilinadi. Quyida rasmiy uslubning asosiy kichik janrlari kontekst va maqsad boʻyicha keltirilgan. Ilmiy subjanr ilmiy maqolalar, tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar va referatlar orqali ifodalanadi. Bu matnlar koʻpincha kirish, adabiyotlar sharhi, metodologiya, natijalar va muhokama kabi boʻlimlardan tashkil topadi. Ilmiy-analitik esse va akademik maʼruzalar ham rasmiy ilmiy uslubning bir qismi hisoblanadi. Huquqiy subjanr qonunlar, qarorlar, shartnomalar va boshqa yuridik hujjatlar orqali namoyon boʻladi. Bu hujjatlar rasmiy qoidalarni belgilab, tomonlarning huquqiy majburiyatlarini aniqlaydi. Yuridik tahlillar, protsessual hujjatlar va sud materiallari ham ushbu janrga kiritish mumkin. Biznes subjanr turli hisobotlar, biznes-rejalar, xizmat yozishmalari va rasman yuboriladigan rasmiy xatlar orqali koʻrinadi. Bu janrda mazmunning aniq, sodda va maqsadga yoʻnaltirilgan boʻlishi talab qilinadi. Rasmiy hisobotlar, biznes takliflari va taqdimotlar orqali maʼlumot yetkazish va muloqot qilish amalga oshiriladi.

Davlat va maʼmuriy subjanr davlat idoralari tomonidan chiqariladigan rasmiy qarorlar, eʼlonlar, koʻrsatmalar va boshqa hujjatlarni oʻz ichiga oladi. Siyosiy bayonotlar, yoʻriqnomalar va diplomatik yozishmalar ushbu subjanrning asosiy namunalari hisoblanadi. Ilmiy-texnik subjanr ilmiy hisobotlar, texnik koʻrsatmalar va texnologik tavsiflar orqali ifodalanadi. Bunday matnlar ilmiy maʼlumotlarni aniq va ishonchli tarzda taqdim etishni maqsad qiladi. Konferensiya materiallari va ilmiy natijalarni taqdim etish ham ushbu janrga kiradi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya subjanri press-revizlar, rasmiy axborot xabarlar va jamoatchilikka moʻljallangan boshqa eʼlonlar orqali amalga oshiriladi. Bu matnlar koʻpincha keng ommaga muhim voqealar va yangiliklar haqida rasmiy axborot berishni koʻzlaydi. Diplomantik subjanr davlatlararo shartnomalar, xalqaro kelishuvlar va boshqa diplomatik hujjatlar orqali ifodalanadi. Ushbu matnlar aniq tuzilgan protokol va diplomatik muloqot meʼyorlariga rioya etib, xalqaro munosabatlarning asosini tashkil qiladi. Rasmiy nutqlar va siyosiy maslahat hujjatlari ham ushbu janrga kiradi.

Ushbu kichik janrlar rasmiy lugʻat boyligi, murakkab gap tuzilmalari va xolis ohangdan foydalanadi. Ular matnning aniqligini, obyektivligini va kasbiyligini taʼminlash uchun zarur boʻlgan muhim kommunikativ vositalardir.

NATIJALAR

Ingliz va o'zbek matnlarining ushbu qiyosiy tadqiqi tarixiy hikoyalar va madaniy xos atamalar tarjimasidagi rasmiy stilistik ekvivalentlikka erishishdagi bir qator qiyinchiliklarni aniqladi. Amir Temurning harbiy yurishlari tasvirlangan mazkur matnlar tahlili sintaktik tuzilish, leksik tanlov va madaniy ifodalar kabi muhim farqlarni ochib berdi. Tadqiqot jarayonida Piter Nyumark, Yujin Nida, Kristian Nord va Kristian Mandey kabi yetakchi olimlarning tarjima nazariyalari nazarga olindi.

1. Madaniy kontekst va atamalar. Piter Nyumark madaniy jihatdan atamalarni semantik tarjima orqali madaniy buzilishlardan himoya qilib, ularning ma'nosini saqlab qolish kerakligini ta'kidlaydi. Masalan, ingliz matnidagi "province of Seistaun" va "six months wages to the soldiers" iborolari boshqaruv va harbiy tartibni rasmiy ifodalasa, o'zbek matnida ularning muqobili sifatida "Garmsir viloyati" va "sovg'a-salomlar" singari madaniy jihatdan mos so'zlar qo'llanilgan. Yujin Nidaning dinamik ekvivalentlik nazariyasi madaniy o'zlashtirish orqali ma'noni aniqroq yetkazishni tavsiya etadi. Masalan, "six months wages" iborasini so'zma-so'z tarjima qilish o'rniga madaniy muqobil ifoda qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Kristian Nord o'zining funksional yondashuvida tarjimada matnning asosiy maqsadi va vazifasini saqlagan holda uni maqsadli auditoriyaga moslashtirish muhimligini qayd etadi. Misol uchun, "succour" va "offerings" kabi so'zlar tarjima tili sohiblari madaniyatiga mos ravishda adaptatsiya qilinsa, ular matnning rasmiy, hurmatli uslubini saqlab qoladi, degan g'oyani ilgari surgan.

2. Hikoyaning tuzilishi va sintaksis farqlari. Yujin Nidaning rasmiy ekvivalentlik haqidagi nazariy fiklari hikoyaviy matn tarjimalarda shakl va aniqlikni saqlab qolish lozimligini ta'kidlaydi. Ingliz matnida qisqa, rasmiy jumlalarga asoslangan izchil hikoyaviy oqim kuzatiladi: "And when the ruler of Seistaun received accounts thereof, he sent offerings and rich gifts unto me." O'zbek matni esa uzun va tasviriy jumlalarga boy: "Bu xabar Seiston vodiysiga yetgach, elchi orqali sovg'a-salomlar yuborib, mendan yordam so'radi." Piter Nyumark modulyatsiya texnikasini qo'llab-quvvatlaydi. Bu texnika jumalarni qayta qurish orqali ma'noni o'zgartirmasdan ekvivalentlikka erishishga yordam beradi. Tarjimonlar o'zbek matnidagi murakkab gaplarni qayta tuzib, ularni ingliz tilida rasmiy, aniq uslubda ifodalashi mumkin. Kristian Mandey sintaktik o'zgarishlar haqidagi qarashlarida matn tuzilishini tarjima tildagi o'quvchilar uchun tushunarli va mazmunli shaklga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

3. Hokimiyat va harakatni aks ettiruvchi leksik tanlov. Ikkala matnda ham Amir Temurning hokimiyati va harbiy yurishlari tasvirlangan. Ingliz matnida "intentions," "fulfilled his engagement," va "victory" kabi diplomatik va rasmiy so'zlar qo'llanilgan bo'lsa, o'zbek matnida "va'dasiga vafo qilmaganligi" kabi madaniy jihatdan boy iboralar ishlatilgan. Nyumarkning kommunikativ tarjima konsepsiyasi xabarni to'g'ri yetkazish va tarjima tilga mos leksik tanlovni muvozanatda saqlashni muhim deb hisoblaydi. Masalan, "fulfilled his engagement" so'z birikmasini o'zbek tiliga mos va hurmatli ma'nodagi ifoda bilan tarjima qilish lozim.

4. Tasviriy va atrof-muhitga oid havolalar. Ingliz matnida "the air and water of that country suited not with me" singari ehtiyotkorlik bilan ifodalangan tasvirlar bor. O'zbek matnida esa bu ibora batafsilroq berilgan: "o'sha o'lkaning havo-ob havosi mening mijozimga to'g'ri kelmagan sababli...". Kristian Nord tasviriy elementlarni madaniy qadriyatlar bilan mos ravishda adaptatsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi. Haddan tashqari so'zma-so'z tarjima tasviriy ifodalarning to'g'riligini buzishi mumkin.

5. Bevosita nutq va rasmiy muloqot. Ingliz matnidagi hukmdorning nutqi “Certain of my enemies have oppressed me” deb aytilgan bo’lsa, o’zbek matnida shunga o’xshash ibora mavjud: “Dushmanlarim menga zulm qilib...”. Har ikkala matnda ham rasmiylik saqlanadi, ammo uslubi madaniy farqlarga mos ravishda o’zgargan. Va bu tarjima misoli aynan Yujin Nida va Nyumarkning ekvivalentlik nazariyalarida muloqotni tarjima til madaniy me’yorlariga mos ravishda adaptatsiya qilish kerakligi haqidagi fikrlarining amaliy tatbiqi bo’lib xizmat qiladi.

6. Yaradorlik va tuzalish. Ingliz matnida Amir Temurning yaradorligi qisqa shaklda beriladi: “An arrow came and pierced my arm, and another arrow also came upon my foot.” Aksincha, o’zbek matnida bu batafsilroq tasvirlangan: “Bir o’q kelib bilagimga qadaldi...”. Bu hikoya tarzining turli xil uslubiy xususiyatlarini aks ettiradi. Nyumark voqealar tasvirida so’zlar muvozanatini saqlashni muhim deb hisoblaydi, Nidaning dinamik yondashuviga ko’ra, tafsilotlar tarjima til me’yorlariga mos ravishda tanlanishi kerak. Ingliz va o’zbek tarixiy hikoyalarni tarjima qilishda rasmiy ekvivalentlikka erishish madaniy kontekst, hikoya tuzilishi va uslubiy me’yorlar kabi qiyinchiliklar bilan kechadi. Piter Nyumark, Yujin Nida, Kristian Nord va Kristian Mandey kabi olimlarning nazariyalari madaniy adaptatsiya, semantik o’zgarish va funksional moslashuv strategiyalari orqali ushbu muammolarni yengishda qimmatli yo’l-yo’riq beradi.

MUHOKAMA QISMI

Tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo’lgan matnlarni tarjima qilishda rasmiy ekvivalentlikka erishish bir qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Ingliz va o’zbek matnlarining qiyosiy tahlili bu murakkabliklarni yoritib berdi. Ushbu muhokamada Piter Nyumark, Yujin Nida, Kristian Nord va Kristian Mandey kabi olimlarning tarjima nazariyalari asosida masalalar ko’rib chiqiladi.

Madaniy jihatdan yuklangan atamalar va iboralarni tarjima qilishda eng katta muammolardan biri ularning to’g’ri ifodalanishi hisoblanadi. Piter Nyumark so’zma-so’z tarjima yetarli bo’lmagan hollarda *semantik tarjima* qo’llanilishi lozimligini ta’kidlaydi. Ingliz matnida “*province of Seistaun*” va “*succour*” kabi rasmiy atamalar ishlatilgan bo’lsa, o’zbek matnida ularga mos keluvchi “*Garmsir viloyati*” va “*sovg’a-salomlar*” kabi ifodalar qo’llangan. Yujin Nida *dinamik ekvivalentlik* nazariyasida matnning ma’no jihatidan ta’sirini saqlashni, lekin maqsadli auditoriyaga mos tarzda ifodalanishini taklif etadi. Masalan, “*six months wages*” iborasining to’g’ridan-to’g’ri tarjimasi o’rniga, madaniy jihatdan mos ifodani qo’llash lozim. Kristian Nord funksional moslashuv nazariyasida tarjimaning asosiy vazifasini va kommunikativ maqsadini saqlagan holda madaniy jihatdan moslashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

Ingliz va o’zbek matnlari tahlili sintaktik strukturalarning sezilarli farqlarini ko’rsatadi. Ingliz matnida qisqa va rasmiy jumlar bilan izchil voqea bayoni taqdim etilgan, masalan: “*And when the ruler of Seistaun received accounts thereof, he sent offerings and rich gifts unto me.*” O’zbek matni esa uzunroq va batafsil tasvirlar orqali ifodalangan: “*Bu xabar Seiston voliyisiga yetach...*”. Nida *rasmiy ekvivalentlik* nazariyasida matnning sintaktik tuzilishini saqlab qolish muhimligini ta’kidlaydi. Kristian Mandey esa sintaktik o’zgarishlarni o’quvchilarga tushunarli va mos shaklda moslashtirishni zarur deb hisoblaydi. Nyumark esa *modulyatsiya* texnikasini qo’llab-quvvatlaydi, bu orqali murakkab gaplar qisqartirilishi yoki qayta tuzilishi mumkin.

Ikkala matnda ham hokimiyat va harbiy muvaffaqiyat tasvirlangan, lekin leksik tanlovlar madaniy va stilistik an’analarga ko’ra farq qiladi. Ingliz matnida “*intentions*,” “*fulfilled his engagement*,” va “*victory*” kabi so’zlar ishlatilgan bo’lsa, o’zbek matnida

“va’dasiga vafo qilmaganligi” kabi iboralar qo’llangan. Nyumarkning *kommunikativ tarjima* nazariyasida xabarni to’g’ri yetkazish uchun leksik tanlov maqsadli tilga moslashtirilishi lozimligi ta’kidlanadi. Bu yerda tarjimon ma’no va madaniy kontekst o’rtasidagi muvozanatni saqlashi kerak. Matnlarda atrof-muhitga oid tasvirlar ham sezilarli farq qiladi. Ingliz matnida *“the air and water of that country suited not with me”* kabi ehtiyotkorlik bilan ifodalangan qisqa tasvir mavjud bo’lsa, o’zbek matnida bu batafsilroq: *“o’sha o’lkaning havo-ob havosi mening mijozi-ma to’g’ri kelmagan sababli...”*. Kristian Nord tasvirlarni madaniy qadriyatlar bilan moslashtirish lozimligini ta’kidlaydi. Bu orqali tasviriy elementlarning asosiy ma’nosi buzilmay, madaniy jihatdan mantiqiy bo’lib qoladi.

Ikkala matnda ham hukmdorning bevosita nutqi berilgan. Ingliz matnida hukmdor *“Certain of my enemies have oppressed me”* deb aytgan bo’lsa, o’zbek matnida bu *“Dushmanlarim menga zulm qilib...”* shaklida ifodalangan. O’zbekcha nutq tarkibida madaniy elementlar, masalan, sovg’a-salomlar berilishi keltirilgan. Nida va Nyumark bevosita nutqni madaniy me’yorlarga moslashtirish, lekin rasmiy ohangni saqlab qolish zarurligini qayd etadi. Ingliz matnida yaradorlik qisqacha: *“An arrow came and pierced my arm...”* deb tasvirlangan bo’lsa, o’zbek matnida bu ancha batafsil: *“Bir o’q kelib billagimga qadaldi...”*. Bunday tafovutlar hikoyaning uslubiy xususiyatlariga bog’liq. Nyumark matnning ifoda uslubini balansda saqlash lozimligini ta’kidlaydi. Nida esa tafsilotlar darajasini maqsadli tilning me’yorlariga moslashtirishni tavsiya etadi. Ushbu tahlil shuni ko’rsatadiki, rasmiy ekvivalentlikka erishish ko’p bosqichli qarorlarni talab qiladi. Tarjimonlar semantik va pragmatik ekvivalentlik, sintaktik moslashtirish hamda madaniy adaptatsiyani amalga oshirib, ma’noning to’g’ri yetkazilishini ta’minlashlari kerak. Nyumark, Nida, Nord va Mandey kabi olimlarning nazariyalari ushbu jarayonning murakkabliklarini yengishda muhim strategiyalarni taklif etadi.

XULOSA

Tarixiy matnlarni, ayniqsa, madaniy havolalar va rasmiy stilistik xususiyatlarga boy matnlarni tarjima qilishda rasmiy ekvivalentlikka erishish juda murakkab jarayondir. Bu jarayon til va madaniyat omillarini puxta hisobga olishni talab qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, sintaktik tuzilma, leksik tanlov va madaniy moslashuvni to’g’ri amalga oshirish orqali ekvivalentlikka erishish mumkin.

Piter Nyumarkning semantik va kommunikativ tarjima, Yujin Nidaning dinamik va formal ekvivalentlik, Kristian Nordning funksional moslashuv va Kristian Mandeyning sintaktik o’zgarishlar haqidagi nazariyalari tarjima jarayonida samarali strategiyalarni taqdim etadi.

Madaniy jihatdan atamalarni mos ravishda o’zlashtirish, hikoyaning formal uslubini saqlash va tasvirlarni madaniy me’yorlarga moslashtirish orqali tarjimon matnning ma’no va vazifasini to’liq yetkazishi mumkin. Shu bois, bunday matnlarni tarjima qilishda faqat so’zma-so’z tarjimaga emas, balki pragmatik va stilistik ekvivalentlikka ham alohida e’tibor qaratilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Yo’ldoshev, U. Tarjimashunoslik terminlarining o’zbekcha talqini. O’zbek tilida xoreografik terminlarning shakllanishi: Bugungi holati va taraqqiyoti bosqichlari. Toshkent 2021. 300-304 b.

2. Abdullayeva, Sh. Adequacy and equivalence in financial and economic translation: strategies for effective communication between English and Uzbek. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (ISSN –2767-3758) Volume 05 Issue 11 Pages: 30-46.

3. Abduganiyeva, Dj., Matenova. Challenges related to the translation of political texts. Academic research in educational sciences, 2022.

4. Newmark, Peter. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall, 1988.

5. Nida, Eugene A. Toward a Science of Translating. Leiden: E.J. Brill, 1964.

6. Nord, Christiane. Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis. Amsterdam: Rodopi, 1997.

7. Munday, Jeremy. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. 4th ed., London: Routledge, 2016.

8. Baker, Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 1992.

9. Venuti, Lawrence. The Translator's Invisibility: A History of Translation. 2nd ed., London: Routledge, 2008.

10. Hatim, Basil, and Mason, Ian. Discourse and the Translator. London: Longman, 1990.

11. Abdullaeva, Sh., Interpretation of the typology of functional styles in linguistic translation. Хорийй лингвистика ва лингводидактика – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics Issue – 2 № 5. 2024 / ISSN 2181-3701.